

"O'G'UZNOMA" DOSTONIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR TALQINI**Odiljonova Xursandoy Murodil qizi****Farg'ona davlat universiteti talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.19938556>****Annotatsiya**

Ushbu maqolada "O'g'uznoma" dostonidagi mifologik obrazlar, ularning kelib chiqishi va dostonidagi badiiy vazifalar tahlil qilinadi. Shuningdek, obrazlarning ramziy ma'nosi va ularning doston mazmunidagi o'rni yoritilgan.

Abstract

This article analyzes the mythological images in the epic poem "Oguzname", their origin and artistic functions in the epic. It also highlights the symbolic meaning of the images and their role in content of the epic.

Аннотация

В данной статье анализируются мифологические образы в эпической поэме «Огузнома» их происхождение и художественные задачи в эпосе. Также освещается символическое значение образов и их роль в содержании эпоса.

Kalit so'zlar: doston, mifologiya, kosmogonik mifologiya, yozma adabiyot.

Keywords: epic, mythology, cosmogonic mythology, written literature.

Ключевые слова: эпос, мифология, космогоническая мифология, письменная литература.

Kirish

Mif grekcha "mythos-so'z, rivoyat" degani bo'lib, insonlarning ilk ijod namunasi hisoblanadi. "Mif" deganda eng qadimgi davr folklorining ilk bosqichida insonlarning osmon jismlari, tabiat hodisalarining yuz berishi, ularning xudolar tomonidan boshqarilishi haqida hayoliy uydirmaga asoslanib hikoya qilgan kichik nasriy asarlar tushiniladi. Mifologik obraz bo'lsa, yuqoridagi talqinlarga asoslangan badiiy-fantastik tushunchadir. Bunday obrazlar og'zaki ijodda (miflar, afsonalar, dostonlar) paydo bo'lib, keyinchalik yozma adabiyotga ko'chgan.

Mifologik obrazlar ikki dunyo-real borliq va g'ayritabiiy olam o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'taydi. Masalan, o'zbek mifologiyasidagi Semurg' donishmandlik va qo'llab-quvvatlash timsoli bo'lsa, Devlar qo'rquv kuchlarini anglatadi. Dunyo miflari mifologiyasida ham shunga o'xshash parallellarni ko'rish mumkin. Poseydon-dengizlarning g'azabnok xudosi, Ajdarho-xitoy mifologiyasida muqaddas suv, yomg'ir hamda omad keltiruvchi mavjudot.

Mifologik obrazlar shunchaki xayolot mahsuli emas. Ular insonning tabiat bilan muloqot qilish usuli hamda qo'rquv va orzular badiiy in'ikosidir. Shu qatorda "O'g'uznoma" dostonini tahlil qilamiz.

"O'g'uznoma" - turkiy xalqlar og'zaki va yozma adabiyotining eng qadimgi namunalaridan biri bo'lib, u qahramonlik eposi janriga kiradi. Doston dastlab og'zaki shaklda yuzaga kelgan, qo'lyozma nusxasi XV asrda uyg'ur yozuvida bitilgan. Hozirda bu nusxa Fransiya Parij milliy kutubxonasida saqlanadi. Asarni fanga birinchi bo'lib 1815-yilda nemis olimi Dits olib kirgan. Hozirgi kunda ham bu doston turkiy adabiyotda alohida o'ringa ega.

Dostonidagi mifologik unsurlar O'g'uz xoqonning dunyoga kelishi bilan boshlanadi. "Shunday bo'lsin dedilar. Uning qiyofasi shundaydir. Shundan so'ng sevindilar. Kunlardan bir kun Oy xoqonning ko'zi yorib bolaladi, o'g'il tug'di". O'g'uzning tug'ilishida va uni dunyoga

keltirgan Oy xoqon timsolida mifologik mazmun mujassamlashgan¹. Bundan ko'rishimiz mumkinki, Oy xoqon timsolida akkad va shumerlar tangrilarining onasi Ishtarga ishora qilingan. Qadimgi turkiylar tasavvuriga ko'ra, Quyosh – erkaklik obtidosi, Oy-ayollik ibtidosidir. Bu obraz jamiyatda urug'chilik tuzumining almashinuvi, ya'ni onalik urug'idan otalik urug'iga o'tish davrini aks ettiradi.

Istedodli folklorshunos olim Jabbor Eshonqul shunday fikrlarni bayon qiladi: "Epik asar syujeti, albatta, biror makon va zamonda kechar ekan, bu harakat shubhasiz, motivlarning harakati orqali amalga oshiriladi."²

Dostondagi O'guzning yirtqich bilan kurash voqealari ertaklardagi kurash motivini yodga soladi. O'guz yirtqichni qo'lga tushurish uchun avval bug'uni, keyin ayiqni daraxtga bog'lab ketadi. Vanihoyat uchinchi kun o'zi poylab o'tirib, yirtqichni mag'lub etadi. Bu holat ezgulik va yozuvlik o'rtasidagi azaliy kurashning ramzidir.

O'guz xoqonning uylanishi bilan bog'liq lavhalarda kosmogonik mifologiya yaqqol ko'rinadi. O'guz xoqon Tangriga iltijo qilayotganda ko'kdan nur tushadi va uning ichidan qiz paydo bo'ladi. Bu qizdan tug'ilgan o'g'illar-Kun, Oy, Yulduz deb nomlanadi. Kosmogonik mifologiya inson olamning qurilishi, koinotning yaralishi, odamning paydo bo'lishi haqida tasavvurlari samarasidir.

Asarda Ko'k bo'ri (qurt) markaziy o'rinda turadi. Bo'ri turkiy qabilalarning umumiy ajdodi va himoyachisi hisoblanadi. U matnda nur ichida paydo bo'lishi bilan ilohiylik kasb etadi. Asar davomida O'guz xoqon qo'shini oldida ko'k yollik ulkan bo'ri paydo bo'lib, unga yo'l ko'rsatadi. Osmondan tushgan bo'rining rangi ham osmon bilan bir xil bo'ladi. Qadimgi xitoy va mog'ul afsonalarida ham bu haqida turli xil afsonalar mavjud bo'lib, hatto mo'g'ullar bayroqlarida bo'ri tasviri tushirilgan.³

Xulosa

"O'guznoma" dostonida mifologik obrazlar muhim o'rin tutadi. Unda O'guzxon, bo'ri va boshqa ramziy obrazlar qadimgi turkiylar dunyoqarashini ifodalaydi. Bu obrazlar orqali yaxshilik va yomonlik, ilohim kuchlarga ishonch kabi g'oyalar ko'rsatiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017. - 556 bet
2. Jabbor Eshonqul. O'zbek xalq dostonlarida tush motivi // O'zbek tili adabiyoti, 1993

1. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017. - 556 bet

2. Jabbor Eshonqul. O'zbek xalq dostonlarida tush motivi // O'zbek tili adabiyoti, 1993

³Nasimxon Rahmonov. O'zbek adabiyot tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017. - 556 bet